

Safarova Adiba Shuxrat qizi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti bosh maslahatchisi

**KOOPERATSIYALARNING HUQUQIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH
– IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA**

Safarova Adiba Shukhrat kizi

*Head consultant of Research Institute of Legal Policy under
the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan*

**STRENGTHENING THE LEGAL FRAMEWORK OF COOPERATIVES AS
A FACTOR OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT**

Сафарова Адипа Шухрат кизи

*Главный консультант Исследовательский институт правовой политики
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан*

**УКРЕПЛЕНИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ КООПЕРАЦИИ – КАК
УСЛОВИЯ СОЦИАЛЬНОГО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ**

**Kooperatsiyalarning huquqiy asoslarini mustahkamlash – ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlanish omili sifatida**

Annotatsiya. Kooperatsiyalar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda kooperatsiyalarni rivojlantirish maqsadida 10 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular, asosan, paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash, meva-sabzavotchilik, sanoat sohasidagi kooperatsiyalarni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari va aholi o‘rtasida kooperatsiyalarni kengaytirishga qaratilgan. Biroq, mamlakatimiz iqtisodiyotida kooperatsiyalarning o‘rnini xorijiy davlatlar bilan qiyoslaganda salbiy baholash mumkin. Bunga kooperatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchiligimiz xalqaro standartlar talablariga javob bermasligi, mazkur sohada davlat aralashuvlarining saqlanib qolganligi, kooperatsiyalarga a‘zolikni rag‘batlantiradigan mexanizmlar mavjud emasligi kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Maqolada kooperatsiyalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan bo'lib, mavjud amaliyot va xorijiy davlatlar tajribasi asosida qonunchilikka takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kooperatsiya, kooperatsiyaga a'zolik, kooperativ mulk, ixtiyoriylik, boshqaruv, ro'yxatga olish, sanoat kooperatsiyasi, aholi bandligi

Аннотация. Кооперативы играют важную роль в социально-экономическом развитии страны. За последние годы в нашей стране принято около 10 нормативно-правовых актов по развитию кооперативов. В основном они направлены на выращивание и переработку хлопка-сырца, фруктов и овощей, развитие производственной кооперации, расширение сотрудничества предприятий и населения. Однако, если сравним процессы развития коопераций в зарубежных странах, можем убедиться, что становлении и развитие данной сферы в нашей стране пока находится в неудовлетворительном состоянии.

Это связано с тем, что наше национальное законодательство, регулирующее деятельность кооперативов, не соответствует современным требованиям и международным стандартам, все еще сохраняется значительное вмешательство государства в деятельность кооперативов, отсутствуют механизмы поощрения их инициатив.

В статье анализируются факторы, влияющие на развитие кооперативов, на основе практики и опыта зарубежных стран даются рекомендации по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: кооператив, кооперативное членство, кооперативная собственность, волонтерство, управление, регистрация, производственная кооперация, трудоустройство.

Annotation. Cooperatives play an important role in the socio-economic development of the country. In recent years, our country has adopted about 10 normative legal acts for the development of cooperation. They are mainly focused on the cultivation and processing of raw cotton, fruit and vegetables, the development of industrial cooperation, and the expansion of cooperation between businesses and the population. However, the role of cooperation in the economy of our country can be evaluated negatively compared with foreign countries. This is due to the fact that our national legislation regulating the activities of cooperatives is not suitable the requirements of international standards, government intervention in this area is preserved, and there are no mechanisms to encourage membership in cooperatives and so on.

The article analyzes the factors influencing the development of cooperatives and makes recommendations for legislation based on existing practices and the experience of foreign countries.

Keywords: *cooperative, cooperative membership, cooperative property, volunteerism, management, registration, industrial cooperation, employment*

Kooperatsiyalar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumot uchun: *Kooperatsiya - bu qonuniy umumijtimoiy yoki iqtisodiy maqsadga erishish uchun ixtiyoriy ravishda birlashgan, talab qilinadigan kapitalga teng ulushlarni qo‘shgan va tavakkalchilik va foydalarining adolatli ulushini qabul qilgan, umumiy qabul qilingan kooperatsiya tamoyillariga muvofiq ish olib boruvchi shaxslarning belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan birlashmasi.*

Xususan, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, **kooperatsiyalarning iqtisodiyotga ijobiy ta’siri** quyidagilar bilan baholanadi:

- ishlab chiqarish, marketing, kommunal xizmatlar, transport, kredit, sug‘urta, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda tadbirkorlarning mehnat unumdorligini oshiradi;

- muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqarishdan to tayyor mahsulot ko‘rinishiga kelgunga qadar bo‘lgan bosqich bir kooperatsiya atrofida birlashganligi natijasida chakana narxlarini pasaytiradi;

- tadbirkorlarning o‘zaro birlashishi ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni jalb qilish, innovatsion uslublarni qo‘llash, tovarlarni xalqaro bozorga olib chiqish imkonini yaratadi;

- kichik va o‘rta biznes vakillarining kooperatsiyalarga birlashib, yirik tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro raqobat muhitiga kirishishi monopoliyani oldini oladi, bozor raqobatbardoshligini oshiradi;

- qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilib, aholi bandligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy jihatdan, kooperatsiyalar kam ta’minlangan, ishsiz fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi.

Shu sababli kooperatsiyalar faoliyati xorijiy davlatlarda ancha keng rivojlangan. Jumladan, Xalqaro kooperativ alyans (International Co-operative Alliance) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab **1 mlrddan** ortiq odam kooperativlarga a’zodirlar. A’zolarining eng ko‘p soni – 305,6 mln a’zolarga va 30,000 ga yaqin kooperativlarga ega AQSHga to‘g‘ri keladi. Kanadada har uchinchi fuqaro kooperativ a’zosi hisoblanadi. Fransiyada kooperativlar fuqarolarni **700 ming** ish o‘rni bilan ta’minlaydi. Yaponiyada fermerlarning **91%**i kooperativlar asosida tashkil etilgan. Quvaytda chakana savdoning **80%**i iste’mol kooperativlari tomonidan amalga oshiriladi.

Dunyodagi eng yirik kooperativ korxonalarning jami daromadi **1.6 trln** AQSH dollarini tashkil qiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy kooperativlar **857 mln** kishiga (dunyo aholisining 13%i) xizmat qiladi, qishloq xo'jaligi kooperativlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining **50 %**ini ishlab chiqaradi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda kooperatsiyalarni rivojlantirish maqsadida 10 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular, asosan, paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash, meva-sabzavotchilik, sanoat sohasidagi kooperatsiyalarni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari va aholi o'rtasida kooperatsiyalarni kengaytirishga qaratilgan.

Jumladan, tomorqa yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanish hamda tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali aholini, ayniqsa ishsiz va ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlami bandligiga ko'maklashish maqsadida kooperativlar tashkil etishni davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yildi.

Ma'lumot o'rnida: O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan **2020-2021-yillar** davomida jami **697 ta** kooperativlar tashkil etilgan bo'lib, **33 669 nafar** ishsiz fuqarolarning bandligi ta'minlangan.

Qayd etish kerakki, kooperativlar tashkil etishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga, ayniqsa, qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanish orqali aholi daromadini oshirishga sezilarli ta'sir etadi.

Biroq, mamlakatimiz iqtisodiyotida kooperatsiyalarning o'rnini xorijiy davlatlar bilan qiyoslaganda salbiy baholash mumkin.

Tagqoslash uchun: Italiyada – **54 096**, Fransiyada – **62 041**, Germaniyada – **66 900**, Ispaniyada – **58 279 ta kooperativlar** faoliyat yuritadi.

Ta'kidlash kerakki, tabiiy resurslar, mulkiy munosabatlar, huquqiy mexanizmlar, biznes muhit, investitsiya oqimi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, iqtisodiy erkinlik kabilar kooperatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan o'rganish natijalariga ko'ra, respublikamiz iqtisodiyotida kooperatsiyalar faoliyati samaradorligi pastligiga ular faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik xalqaro standartlar talablariga javob bermasligi, mazkur sohada davlat aralashuvlarining saqlanib qolganligi, kooperatsiyalarga a'zolikni rag'batlantiradigan mexanizmlar mavjud emasligi kabi omillar sabab bo'layotganligi aniqlandi. Xususan:

I. Kooperativlar faoliyatini tashkil etishdagi huquqiy va tashkiliy kamchiliklar.

1. Kooperativlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik xalqaro standartlar talablariga javob bermaydi.

Ma'lumot o'rnida: Xorijiy davlatlarda kooperativ qonunlarning 2 turi amal qiladi: barcha turdagi kooperativlar uchun umumiy qonun yoki tarmoq qonunlar.

Bunda umumiy qonun mavjud davlatlarda tarmoq qonunlar amal qilmaydi. Masalan, **Janubiy Koreyada** muayyan sohani (qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliq ovlash, kredit) tartibga soluvchi tarmoq qonunlar amal qiladi. **Xitoy, Germaniya, Kanada, Malayziya, Fillipin** kabi davlatlarda kooperativ munosabatlar faqat umumiy qonunlar bilan tartibga solingan.

Mamlakatimizda kooperatsiyalar faoliyati **umumiy va tarmoq** qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ya'ni, 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan **“Kooperatsiya to'g'risida”gi** O'zbekiston Respublikasining Qonuni kooperatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonun hisoblanadi. Bundan tashqari, kooperatsiyalar faoliyatiga doir o'ndan ortiq tarmoq qonunchilik hujjatlari ham mavjud. Jumladan, Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, “Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–4239-son qarori va boshqa qonunchilik hujjatlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Biroq, kooperatsiya sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning ko'pligi mavjud normalarni amaliyotda qo'llash jarayonida muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, qonunchilikdagi kamchiliklar sababli qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq aholisining turmush sharoitini yanada yaxshilash, ularning manfaatdorligini ta'minlashning zamonaviy usuli bo'lgan – klasterlarning kooperatsiyalar sifatida faoliyat yuritishi huquqiy jihatdan mustahkamlanmagan.

Shuningdek, kooperatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonun – “Kooperatsiya to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bugungi kun talablariga, xususan Xalqaro kooperativ ittifoqi tamoyillari va tavsiyalariga javob bermaydi. Mazkur Qonun **16 moddangina** iborat bo'lib, uning qoidalari umumiy xarakterga ega, kooperatsiya a'zolarining manfaatlarini ifoda etmaydi hamda davlat nazoratini belgilash bilan chegaralangan.

Ma'lumot o'rnida: Xitoyning “Kooperatsiyalar to'g'risida”gi qonuni (Cooperatives Act) 9 bo'lim, 77 moddadan iborat. Germaniyaning “Kooperatsiyalar to'g'risida”gi qonuni (Cooperative Law) 10 bo'lim, 174 moddadan iborat.

Jumladan, mazkur Qonunda **kooperativlar faoliyatining asosiy prinsiplari** aks etmagan. Shu sababli uning qoidalari ham mazmunan umumqabul qilingan prinsiplarga mos kelmaydi.

Ma'lumot o'rnida: Xorijiy davlatlar qonunchiligida kooperativlar faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar keltirilgan:

- ixtiyoriy va ochiq a'zolik;

- a'zolari demokratik boshqarish;
- foyda yoki zararni qoplashda a'zolarining iqtisodiy ishtiroki va hissasi;
- biznesning mustaqilligi va a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqqligi;
- kooperativlar o'rtasidagi hamkorlik va jamiyat uchun g'amxo'rlik.

Masalan, ushbu Qonunda a'zolari demokratik boshqarish xususiyatlari va a'zolar to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqqligiga oid qoidalar mavjud emas. Bu o'z navbatida, a'zolarida o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari shakllanmasligiga, ularning kooperatsiya faoliyatida ishtiroki cheklanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, Xalqaro kooperativ ittifoqi tavsiyalariga ko'ra, kooperativ qonunchilikda **kooperativ mulk** va **kooperativning zahira fondini** shakllantirish, uni taqsimlash va foydalanish masalalari to'liq tartibga solinishi lozim.

Qayd etish lozimki, "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonunda bu masalalar yetarlicha tartibga solinmagan. Ushbu Qonunning 4-moddasi kooperativning mulkdorlari va mol-mulki masalariga bag'ishlangan. Biroq, moddada umumiy masalalar, ya'ni, kooperativning mustaqil balansida o'z ifodasini topadigan asosiy fondlar, aylanma mablag'lari, pay badallari, shuningdek, boshqa boyliklar kooperativ mulki hisoblanishi kabi qoidalar belgilangan xolos.

Zahira fondlar haqidagi qoidalar esa mavjud emas.

Xorijiy davlatlar, jumladan Germaniyada kooperatsiyalarning zahira fondlaridan investitsiya faoliyatini amalga oshirish, a'zolariga ssudalar berish kabi maqsadlarda foydalanish mumkin.

Qolaversa, qonun hujjatlarida kooperatsiya munosabatlarini tashkil etish, kooperatsiyaga a'zolik va a'zolikdan chiqish, a'zolik badalini to'lash shartlari, dividend ulushini aniqlash va taqsimlash mexanizmlari va umuman, kooperatsiya munosabatlari to'liq tartibga solinmaganligi amaliyotda qator muammolarga sabab bo'layotganligi, kooperatsiyalar faoliyatini yo'lga qo'yilishida tashkiliy-iqtisodiy (moliyaviy) va huquqiy (shartnomaviy) mexanizmlar yetarli darajada yaratilmaganligi ko'zga tashlanmoqda.

Umuman olganda, "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonun kooperatsiyalar faoliyatini rivojlantirishga, ularni iqtisodiyotda rolini oshirishga xizmat qilmaydi.

2. Kooperativlar faoliyatida davlatning nazorat funksiyalari saqlanib qolmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Osiyo mintaqasining amaldagi kooperativ qonunlari, avvalambor, kooperativlar davlat tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish dasturlari asosida faoliyat yuritishiga qaratilgan. Biroq, ularning fikricha, **hukumatlar kooperativlar ustidan o'z nazoratlarini (kooperativning kundalik ishlariga aralashish) kamaytirishi lozim.**

Ma'lumot uchun: *Xalqaro kooperativ ittifoqining Osiyo mintaqaviy direktori P.E. Weeraman shunday degan edi: «Kooperativ harakatni rivojlantirishga hukumat qo'shishi mumkin bo'lgan eng katta hissa - bu qonuniy asos va zarur kafolatlar va imtiyozlarni yaratadigan qonunchilikni joriy etishdir»*

Mazkur xulosa O'zbekiston uchun ham xos bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4549-son qarorining 1-bandida kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash maqsadida xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb etgan holda 2020-yilda Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarining 22 ta tumanida **31 ta**, 2021-yilda respublika bo'yicha **100 ta** qishloq xo'jaligi birlashmalari tashkil etilishi belgilangan.

Ta'kidlash kerakki, mazkur talab kooperativlar faoliyatini tashkil qilish prinsiplariga mos kelmaydi. Sababi "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasida kooperatsiya jismoniy va yuridik shaxslarning iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida umumiy maqsadlarga erishish uchun tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan, mulkning shirkat (jamoat) shakliga asoslangan **ixtiyoriy birlashmalaridan (kooperativlaridan)** iborat ekanligi nazarda tutilgan.

3. Amaldagi qonunchilik kooperativ a'zolarining a'zolikdan manfaatdorligini ta'minlamaydi.

Kooperatsiya tashkil etishning asosiy maqsadidan biri bu kooperatsiya a'zolarini daromad bilan ta'minlash va ularning daromadlarini oshirib borishga qaratilgan bo'ladi. Shunga ko'ra, kooperativ qonunchilikda **kooperativlarning faoliyat yuritishini rag'batlantiradigan yoki a'zolarining manfaatdorligini oshiradigan mexanizmlar** nazarda tutilishi lozim.

Jumladan, ushbu imkoniyat va imtiyozlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Zahira fondlarini o'z ichiga olgan kooperativ kapital ulushi, hissasi yoki a'zoning ulushi sud tomonidan musodara qilinishi yoki sotilishi mumkin emas (Malayziya);

- Kooperativdagi har qanday aksiyalar, jamiyat tomonidan berilgan qarzarlar yoki uning foizlari deklaratsiya qilinmaydi (Buyuk Britaniya);

- Hukumat ustav kapitaliga xayriya mablag'lari ajratishi, kreditlar berishi, qarzar va foizlarni to'lashni kafolatlashi va ustav kapitalining dividendlari qaytarilishini kafolatlashi mumkin (Hindiston);

- A'zolar soni kam bo'lgan yoki keng jamoatchilik bilan muomala qilmaydigan kooperativlar har qanday turdagi davlat soliqlaridan ozod qilinadi (Fillipin);

- Kooperativlar shtamp boji, ro'yxatdan o'tish boji va boshqa davlat bojlari to'lashdan ozod qilinadi (Shri-Lanka);
- Kooperatsiyalar daromad yoki tadbirkorlik solig'idan ozod qilinishi mumkin (Xitoy).

Biroq, bundan mexanizmlar qonunchiligimizda nazarda tutilmagan.

Ma'lumot uchun: O'rganishlar davomida Norin tumanida tashkil etilgan "XOLIS MADAD CHORVA" ishlab chiqarish kooperativida **1 nafar** hamda Yangiqo'rg'on tumanida tashkil etilgan "O'ZAK AGRO KLASSTER" ishlab chiqarish kooperativida **2 nafar** a'zolar mavjudligi aniqlangan.

4. Kooperatsiyalar to'g'risida aholi bilim darajasi kam, tadbirkorlarda o'zaro ishonch munosabatlari shakllanmagan.

Kooperatsiyalar faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar qatoriga aholining kooperatsiyasi to'g'risidagi bilim darajasi yetarli emasligi, o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish va erkin birlashishga ruhiy (psixologik) jihatdan tayyor emaslik kabilarni ham kiritish mumkin.

Kooperatsiya munosabatlarini tashkil etish, uning afzalligi, erishiladigan yutuqlar, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarning zamonaviy ilg'or tajribalari yetarlicha targ'ibot qilinmaydi. Qonunchilikda ham tadbirkorlarda o'zaro ishonch munosabatlarini shakllantirish borasida aniq mexanizmlar nazarda tutilmagan.

Xorijiy davlatlar, jumladan, **Xitoyning** "Kooperatsiyalar to'g'risida"gi qonuni 71-moddasida davlat organlari kooperativlarni rivojlantirish uchun kooperativlarni targ'ib qilish, kooperativ ta'lim va o'qitishni tashkil qilish, kooperativlarga moliyaviy rag'batlantirish kabi usullardan foydalanishi belgilangan.

Shuningdek, tadbirkorlarda o'zaro ishonch munosabatlarini shakllantirish uchun qonuniy mexanizmlar sifatida quyidagilar keltirilgan:

- A'zolarining kooperatsiyaga kirishi va chiqishi uchun asoslar;
- A'zolikdan chiqish haqidagi xabarning uch oy oldin berilishi;
- Kooperativ a'zo boshqa a'zolarining firibgarlik yoki insofsiz harakat qilganligini aniqlansa, sud tomonidan yetkazilgan zararni undirib olishi mumkinligi va h.k.

Shu sababli kooperatsiya ishtirokchilari bo'lgan subyektlar, jumladan, fermer va dehqon xo'jaligi rahbarlari, tomorqa yer egalari yoki boshqa shu sohadagi tadbirkorlarning huquqiy hamda biznes sohasidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

5. A'zolarida kooperatsiyani boshqarish ko'nikmalarini shakllantiruvchi mexanizmlar mavjud emas.

Kooperatsiya munosabatlariga asoslangan kooperativ korxonalarni va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni manfaatli tashkil etishda mutaxassislarining

kooperativlarni boshqarish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga egaligi muhim ahamiyatga ega. Kooperativ a'zolari o'z maqsadlariga erishish uchun boshqaruv va buxgalteriya oid ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Buning uchun kooperatsiya boshqaruvi tizimli va samarali tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

Ammo, kooperativlarni boshqarish bilan bog'liq amaldagi tartib xalqaro standartlarga mos kelmaydi. Jumladan, "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida kooperativning oliy boshqaruv idorasi umumiy yig'ilish, konferensiya, syezd bo'lib, ular kooperativ raisini (boshqaruvini), taftish komissiyasini (taftishchini) saylashi va ularga kooperativni boshqarish bo'yicha o'z vakolatlarini topshirishi belgilangan. Boshqaruvning boshqa shakllari nazarda tutilmagan.

Xalqaro amaliyot kooperativ boshqaruv beshta element bo'yicha tasniflanishi lozimligini ko'rsatadi. Bular bosh assambleya, **boshqaruv raisi, ijroiya kengashi yoki kuzatuv kengashi, taftish, qo'mitalardan** iborat. Xorijiy davlatlarning kooperativ qonunchiligida kooperativ boshqaruvning barcha turi mavjud hamda ularning faoliyati, vakolatlari va funksiyalari qonun darajasida belgilab qo'yilgan. Boshqaruvning mazkur tuzilishi a'zolarida kooperatsiyani boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

6. Kooperativlarni ro'yxatga olish tizimli tartibga solinmagan. "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida kooperativning ustavi kooperativ ta'sis etishni istagan fuqarolarning umumiy yig'ilishida yoki yuridik shaxslar muxtor vakillarining yig'ilishida qabul qilinishi va kooperativ joylashgan yerdagi hokimlikda ro'yxatga olinishi belgilangan bo'lsada, **kooperativlarni ro'yxatga olishni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik hujjati** mavjud emas. "Kooperatsiya to'g'risida"gi qonunda ham kooperativlarni ro'yxatdan o'tish tartibi belgilab qo'yilmagan. Mazkur holat ro'yxatdan o'tkazuvchi organga ixtiyoriy vakolatlar berishi, bu o'z navbatida, kooperativlar faoliyatida turli amaliy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

II. Kooperatsiyalarni rivojlantirishda tarmoqlararo kamchiliklar.

1. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida kooperatsiyalar faoliyatini tashkil etishdagi kamchiliklar.

Bugungi kun qishloq xo'jaligi sohasida eng dolzarb masalalardan biri qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtiruvchi xo'jaliklar bilan ularning mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, sotish, xizmat ko'rsatish, ta'minot tizimidagi barcha xo'jalik subyektlari o'rtasida teng manfaatlar asosida, adolat va oshkora iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish zarur hisoblanadi.

Biroq, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish kooperatsiyalari faoliyati tahlili fermer, dehqon, tomorqa xo'jaliklarini kooperatsiya a'ziligiga biriktirishga, klasterlar

faoliyatida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirishga ma'muriy- boshqaruv, tashkiliy omillar salbiy ta'sir etayotganligini ko'rsatmoqda.

Birinchidan, qishloq xo'jaligi sohasini boshqaruv tashkilotlari fermer xo'jaligi, agroklastarlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ekinlarni joylashtirish, uning maydoni va boshqa yo'nalishlarda shu jumladan, infratuzilma subyektlari bilan shartnoma tuzish jarayonlarida bevosita ishtirok etadilar (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-sentabrdagi 744-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son Farmoni*).

Qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va mahsulot yetishtirish hajmlarini tegishli boshqaruv tashkilotlari va tuzilmalar tomonidan belgilanishi, pirovard natijada, yetishtirilgan mahsulotni sotish jarayonigacha bo'lgan bosqichlarni ham ular tomonidan nazoratga olinishiga, xo'jaliklar faoliyati ustidan mavsum davomida monitoring olib borilishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalarining umumiy faoliyatlarini birlashtirib, ularni kooperatsiya asosida faoliyat yuritishi afzalligini asoslab beradigan, shuningdek, birlamchi tashkiliy tuzilmalar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga yordam ko'rsatadigan **davlat yoki nodavlat tuzilmalar** faoliyati yo'lga qo'yilmagan.

Shuningdek, kooperatsiya munosabatlari sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ularning daromadlar va xarajatlari, kooperatsiyalarning yil yakuniy natijalari bo'yicha YIM ulushi va boshqa shu kabi **ma'lumotlar statistikasi** yuritilmaydi.

Uchinchidan, paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati tahlili erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar ham mavjudligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, paxta-to'qimachilik klasterlarini moliyalashtirish, ularga kreditlar ajratishning amaldagi tartibini takomillashtirish va bozor talablariga javob beradigan yangi kreditlash mexanizmini yaratish zarur.

Paxta-to'qimachilik klasterlari rahbarlarining fikricha, paxta-to'qimachilik klasterlarini moliyalashtirishning amaldagi tizimida, ya'ni, ishlab chiqarish va moliyalashtirish muddati o'rtasida **tafovut** mavjud. Xususan, bugungi kunda ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash uchun kreditlar **1-1.2 yil** muddatga berilmoqda (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2021 yildagi PQ-2-son qarori*).

Vaholanki, paxta xomashyosini birlamchi va chuqur qayta ishlash yo'li bilan yerni tayyorlash, ekish, hosilni yig'ishtirib olish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ularni ichki va tashqi bozorda sotish **3-3.5 yil** davom etadi.

Xulosa qilganda, qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini davlat tomonidan iqtisodiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari to'liq emasligi, me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy asoslar yetarli bo'lmaganligi kooperatsiya munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, faoliyatni yo'lga qo'yishdagi muammolar va a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi sababli, hozirgi vaqtda rasmiylashtirilgan **94 ta** kooperatsiyadan **30 tasi** (31 foizi) o'z faoliyatini to'xtatgan.

Ma'lumot uchun: Ayni paytda qishloq xo'jaligi sohasidagi kooperatsiyalar soni **64 ta** tashkil etib, ularga jami **1003 ta** fermer xo'jaliklari, **18 ta** qayta ishlash korxonalari, **15 ta** eksportyorlar a'zo hisoblanadi hamda jami **23.2 ming ga** yer maydon biriktirilgan.

Bugungi kunda faoliyat yurituvchi kooperatsiyalarning jami yillik qayta ishlash quvvati **11,2 ming tonna**, quritish quvvati **2 ming tonna**, muzlatkich omborxonalar quvvati esa **11,3 ming tonnani** tashkil etmoqda.

2. Kooperatsiyalarning iqtisodiyotning turli tarmoqlarida rivojlanishi uchun yetarli tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilmagan.

Yuqorida keltirilganidek, kooperatsiyalar ishlab chiqarish, marketing, kommunal xizmatlar, transport, kredit, sug'urta, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, rivojlangan mamlakatlarda **sanoat kooperatsiyasi** ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va umumiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashning iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi.

Yaponiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Turkiya kabi mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlovchi tarkibiy qismlardan biri bu - sanoat kooperatsiyasi va unga xizmat qiluvchi subpudratchilar hisoblanadi.

Jumladan, Yaponiya tajribasiga ko'ra, 1980-yillarning boshidayoq kooperatsiya faoliyati asosida ish yurituvchi kichik firmalarning ulushi **65%** ni tashkil etgan bo'lsa, elektronika sanoatida bu ko'rsatkich **86%** ga yetgan.

Biroq, mamlakatimizda sanoat kooperatsiyasining rivojlanganlik holati qoniqarli darajada emas.

Xususan, bugungi kunga qadar elektron kooperatsiya portalida (cooperation.uz) jami **94 ming** ishtirokchi ro'yxatdan o'tgan. Portalga joylashtirilgan tovarlar soni qariyb **184 mingtani** tashkil etgan.

Mutaxassislarning fikricha, O'zbekistonda sanoat sohasida kooperatsiya faoliyatini rivojlantirishdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

- yirik sanoat tarmoqlarida davlat ulushining saqlanib qolganligi;
-

- xo‘jalik subyektlari tomonidan xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlaridan samarali foydalanmaslik;
- kooperatsiyalarga a‘zolikni rag‘batlantiradigan iqtisodiy mexanizmlarni mavjud emasligi;
- xorijiy mamlakatlar bilan sanoat kooperatsiyalarini tashkil etishdagi muammolarning mavjudligi;
- mahalliyashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda investitsion loyihalarni amalga oshirishda hududiy nomutanosiblikning mavjudligi;
- ishlab chiqarish korxonalarini mahalliyashtirish dasturiga kiritish jarayonlarining murakkabligi;
- hududlardagi ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanmaganligi;
- qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalari kooperatsiyasini bog‘laydigan tizimning mavjud emasligi;
- ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohalari o‘rtasida kooperatsiyani kengaytiradigan va rag‘batlantiradigan mexanizmlarning mavjud emasligi.

3. Aholi bandligini ta‘minlash sohasida kooperativlar faoliyatini tashkil etishdagi kamchiliklar.

Bugungi kunda ishsiz va band bo‘lmagan aholi kooperativlar ustav fondiga ulushdor sifatida kiritilib, ularning bandligigiga ko‘maklashish maqsadida Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiyalar berish mexanizmidan ta‘sirchan va samarali chora sifatida foydalanilmoqda.

Ya‘ni, ishsiz va ish qidirayotgan, shuningdek ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamiga mansub bo‘lgan fuqarolarning bandligini ta‘minlash maqsadida kooperativ tashkil etmoqchi bo‘lgan muassisga mazkur shaxslarni kooperativ ustav fondiga (jamg‘armasiga) ulush sifatida kiritish uchun — har bir a‘zoga bazaviy hisoblash miqdorining **10 baravari** miqdorida subsidiya ajratish tizimi yo‘lga qo‘yilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PQ-4716-son qarori).

Biroq, mazkur sohada ham ayrim muammolar ko‘zga tashlanmoqda:

Birinchidan, kooperativlarga a‘zo bo‘lgan ishsiz shaxslar ishga qabul qilish to‘g‘risidagi buyruq va mehnat shartnomasiz a‘zo bo‘ladilar. Bu esa mehnat munosabatlariga kirishmaganligi sababli ikki tomonning mehnat huquqlari va majburiyatlarini belgilamasligi natijasida daromadga ega bo‘lishini ta‘minlamaydi. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan olib borilgan monitoring natijalariga ko‘ra, aksariyat kooperativlar a‘zo bo‘lgan shaxslar uchun Davlat soliq organlari tomonidan yagona ijtimoiy to‘lov to‘lamagan holatlari aniqlangan. Bu esa a‘zo bo‘lgan shaxsning ijtimoiy himoyasini, ya‘ni pensiya yoshiga yetganda, pensiya ta‘minotini kafolatlamaydi. Shuningdek, davlat ijtimoiy sug‘urtasi

bo'yicha nafaqalar (vaqtincha mehnatga layoqatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish bo'yicha) to'lanishi ham kafolatlanmaydi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-apreldagi 225-son "Davlat mablag'lari hisobidan band bo'lmagan aholiga berilayotgan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa to'lovlarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida 2021-yil 1- maydan boshlab 28 ta tuman va shaharlarda sinov tariqasida Davlat mablag'lari hisobidan band bo'lmagan aholiga berilayotgan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa to'lovlarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlash maqsadida **ijtimoiy shartnomalar** tuzish joriy etildi. Mazkur ijtimoiy shartnomaning bandlariga ko'ra kooperativlar ustav fondiga ulush sifatida kiritish uchun ajratilgan subsidiya hisobiga ishlab chiqarish jarayonlarida kooperativ a'zosi sifatida faol ishtirok etish majburiyati belgilangan. Ishsiz tomonidan uzrsiz sabablarga ko'ra kontrakt shartlari bajarilmagan taqdirda, shartnoma bekor qilingan kundan e'tiboran o'n ikki oygacha ushbu shaxs bilan shartnoma tuzilmasligi belgilangan. Bu esa shartnoma shartlari bajarilmasligi munosabati bilan fuqaro 12 oy davomida Bandlik xizmatlaridan (ishsizlik nafaqasi, subsidiyalar, stipendiyalar va b.) foydalana olmasligini anglatadi.

Uchinchidan, ishsiz sifatida ro'yxatga olingan shaxslar kooperativlarga a'zo sifatida qabul qilingandan so'ng, yetakchi tadbirkor tomonidan ko'p o'tmay kooperativni tugatish va a'zolarga turli vajlar bilan subsidiya sifatida ajratilgan ulushlarni qaytarib berilmasligi holatlari uchramoqda.

Kooperativlar soni 2020-yilda **469 ta** tashkil etilgan bo'lsa, ularga ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish bo'yicha olib borilgan nazorat-taftish natijasida 2021-yilda ular soni **228 taga** tushib qolgan.

Yuqorida keltirilgan muammolar va qonunchilikdagi kamchiliklar natijasida jismoniy va yuridik shaxslarning kooperativlarga birlashuvi sezilarli darajada kamayib ketgan, ularning kooperativlarga a'zolikdan manfaatdorligi yo'qolgan.

Ta'kidlash kerakki, kooperativlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunni qabul qilishdan maqsad kooperativlarga huquqiy maqom berish va ularning ishlashiga ko'maklashish bo'lishi, shuningdek, qonun kooperativlarning ixtiyoriy birlashmalar sifatida va umumiy qabul qilingan kooperatsiya tamoyillariga muvofiq ishlashini ta'minlashi lozim.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini o'rganish natijalari.

Kooperatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni o'rganish maqsadida **Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Xitoy, Hindiston, Malayziya, Kanada, Fillipin** kabi davlatlar qonunchiligi o'rganildi.

Masalan, Xitoyning “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi qonuni (Cooperatives Act) 9 bo‘lim, 77 moddadan iborat. Germaniyaning “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi qonuni (Cooperative Law) 10 bo‘lim, 174 moddadan iborat. Mazkur davlatlarda kooperativlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunning qoidalari, asosan, quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- Kooperatsiya tushunchasi, predmeti va kooperatsiya tamoyillari;
- Kooperatsiyalarni ro‘yxatdan o‘tish tartibi;
- A‘zolik, a‘zolarining huquq va majburiyatlari;
- Kooperatsiyani boshqarish;
- Mablag‘lar, kapital masalalari;
- Kooperatsiyani qayta tashkil qilish va tugatish;
- Kooperatsiyalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- Nizolarni hal qilish;
- Jazo masalalari.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilish ushbu davlatlarda kooperatsiya prinsiplaridan tortib jazo masalalarigacha bo‘lgan munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunda nazarda tutilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, **Kanadaning** “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi qonuni (Cooperatives Act) 8-moddasida kooperativlar uch kishidan kam bo‘lmagan jismoniy shaxslar yoki ikkitadan ortiq yuridik shaxslar birlashmasidan iborat bo‘lishi belgilangan. 16 yoshga to‘lmagan, muomala layoqatiga ega bo‘lmagan yoki bankrotlik maqomi mavjud jismoniy va yuridik shaxslar kooperatsiyalarga a‘zo bo‘la olmaydi.

Janubiy Koreya qonunchiligida agar a‘zo bir yildan ortiq muddat kooperativdan foydalana olmagan bo‘lsa, shuningdek, u sarmoyalarni to‘lash, xarajatlarni taqsimlash yoki kooperativ oldidagi boshqa majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, kooperativdan chiqarib yuborilishi mumkinligi nazarda tutilgan. **Yaponiya** kooperativ qonunchiligida ham muayyan vaqt davomida kooperativ xizmatlaridan foydalanmagan a‘zolar Bosh organ tomonidan chiqarilishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, xorijiy davlatlarda kooperativlarni ro‘yxatga olishning turli muddatlari o‘rnatilgan. Masalan, bu muddat 15 kun (Kanada), 30 kun (Filippin), 2 oydan (Yaponiya) olti oygacha (Hindiston va Indoneziya) bo‘lgan davrlarni tashkil qiladi.

Xalqaro amaliyot kooperativ boshqaruv beshta element bo‘yicha tasniflanishi lozimligini ko‘rsatadi. Bular bosh assambleya, boshqaruv raisi, ijroiya kengashi yoki kuzatuv kengashi, taftish, qo‘mitalardan iborat. Jumladan, **Xitoyning** “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi qonuni (Cooperatives Act) 32-moddasida kooperatsiyani boshqarish masalalari yoritilgan. Unga ko‘ra, kooperativda kamida uchta direktor va uchta

nazoratchi bo'lishi kerak va ular a'zolarining qurultoyida a'zolar orasidan saylanadi. Direktorlar va nozirlar uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga o'z lavozimlarini egallaydilar va agar qonun yoki ustavda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ular qayta saylanish huquqiga ega.

Filippinning Kooperativ kodeksida (Cooperative code of Philippines) kooperativning ichki ishiga xalaqit beradigan davlat amaldorlari ham kooperativ qonunchilikni buzgan huquqbuzarlik subyektlari sifatida keltirilgan. Ushbu qoida kooperativlar ishiga siyosiy va byurokratik aralashuvni oldini olishga qaratilgan bo'lib, ko'plab davlatlar uchun namuna bo'la oladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, kooperativlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. "Kooperatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunini yangi tahrirda ishlab chiqish, qonunning yangi tahrirdagi loyihasida quyidagilarni nazarda tutish taklif etiladi:

- qonunning maqsadini belgilash, kooperativ tushunchasiga uning xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'rif berish;

- barcha turdagi kooperativlar faoliyati uchun mas keluvchi kooperativ faoliyat prinsiplarini (ixtiyoriy va ochiq a'zolik, a'zolari demokratik boshqarish, foyda yoki zararni qoplashda a'zolarining iqtisodiy ishtiroki va hissasi, biznesning avtonomligi, mustaqilligi va a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi, kooperativlar o'rtasidagi hamkorlik va jamiyat uchun g'amxo'rlik) belgilash;

- kooperativga a'zolik, a'zolarining huquq va majburiyatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;

- kooperativlarni davlat ro'yxatidan o'tish tartibi, taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati, ro'yxatdan o'tish uchun belgilangan muddat, arizani rad etish asoslarini qonun darajasida belgilash;

- xalqaro davlatlar tajribasidan kelib chiqib, kooperativ boshqaruvning umumiy yig'ilish, boshqaruv raisi, ijroiya kengash (kuzatuv kengashi) va taftishdan iborat ekanligini hamda ularning faoliyati, vakolatlari va funksiyalarini belgilab qo'yish;

- kooperativ mulk tarkibi, ulardan foydalanish tartibi, kooperativ aksiyalar, a'zolarining mulkiy huquqlari va javobgarligi masalarini aks ettirish;

- amaldagi qonunchilikda mavjud bo'lmagan kooperativning zahira fondini shakllantirish, uni taqsimlash va foydalanish tartibini nazarda tutish;

kooperativ va uning a'zolari o'rtasidagi nizolarni hal qilish bo'yicha aniq qoidalarni aniq belgilash, bunda sud rolini imkon qadar kamaytirish;

- kooperativ qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalarini to'g'ridan-to'g'ri belgilash;

- kooperativning faoliyatini to'xtatish va uni qaytadan tashkil etish masalalarini takomillashtirish.

2. Kooperativlarni turli sohalarda, jumladan, ishlab chiqarish, marketing, kommunal xizmatlar, transport, kredit, sug'urta, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda rivojlanishi uchun huquqiy mexanizmlarni yaratish;

3. Kooperativlarning faoliyat yuritishini rag'batlantiradigan yoki kooperativlardan a'zolarining manfaatdorligini oshiradigan mexanizmlarlarni (soliqlardan, bojxona to'lovlaridan ozod qilish, hukumat tomonidan imtiyozli kreditlar berish) yaratish;

4. Qonunchilikda a'zolarida o'zaro ishonch munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni, jumladan quyidagilarni belgilab qo'yish:

- foyda va zararning a'zolarining shaxsiy mehnati bilan ishtiroki yoki xo'jalik faoliyatdagi ishtirokini hisobga olgan holda ular o'rtasida taqsimlanishi;

- faoliyatning oshkoralik asosida boshqarilishi, har bir a'zo, qo'shgan mulkiy hissasining miqdoridan qat'i nazar, bir ovozga ega bo'lishi;

- faoliyat to'g'risidagi axborotlarni uning barcha a'zolari uchun ochiq bo'lishi.

5. Kooperatsiyalar faoliyatiga oid statistik ma'lumotlarning ochiqligi, shaffofligini ta'minlash;

6. Kooperatsiyalar va ularning ahamiyati to'g'risida aholi, jumladan tadbirkorlar xabardorligini oshirish maqsadida turli targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish, Savdo-sanoat palatasi tomonidan tadbirkorlik subyektlarini o'qitish dasturlarini kooperatsiyalarning ahamiyatiga oid materiallar bilan boyitish.

7. Kooperatsiya ishtirokchilari bo'lgan subyektlar, jumladan, fermer va dehqon xo'jaligi rahbarlari, tomorqa yer egalari yoki boshqa shu sohadagi tadbirkorlarning huquqiy hamda biznes sohasidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus elektron platforma faoliyatini yo'lga qo'yish;

8. Qishloq xo'jaligi sohasini boshqaruv tashkilotlarining kooperatsiyalar faoliyatiga aralashuvlarini cheklash;

9. Tadbirkorlik subyektlarining umumiy faoliyatlarini birlashtirib, ularni kooperatsiya asosida faoliyat yuritishi afzalligini asoslab beradigan, shuningdek, birlamchi tashkiliy tuzilmalar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga yordam ko'rsatadigan nodavlat tuzilmalar faoliyatini rag'batlantirish;

10. Paxta-to'qimachilik klasterlarini moliyalashtirish, ularga kreditlar ajratishning amaldagi tartibini takomillashtirish;

11. Sanoat kooperatsiyalari faoliyati sohasida:

- yirik sanoat tarmoqlarida xususiylashtirishni 2 barobarga oshirish;

- xo‘jalik subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish;
- kooperatsiyalarga a‘zolikni rag‘batlantiradigan iqtisodiy mexanizmlarni kafolatlash;
- xorijiy mamlakatlar bilan sanoat kooperatsiyalarini tashkil etishning uzoq yillarga mo‘ljallangan strategiyalarini ishlab chiqish;
- mahalliyashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda investitsion loyihalarni amalga oshirishda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik holatidan kelib chiqib yondashish;
- ishlab chiqarish korxonalarini mahalliyashtirish dasturiga kiritishdagi jarayonlarni soddalashtirish;
- hududlarda kooperatsiyalar faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalari kooperatsiyasini bog‘laydigan tizimni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohalari o‘rtasida kooperatsiyalarni kengaytiradigan va rag‘batlantiradigan mexanizmlarni takomillashtirish;
- Elektron kooperatsiya birjasi portali imkoniyatlarini kengaytirish.

12. Aholi bandligini ta‘minlash sohasida:

- barcha turdagi kooperativlarga a‘zo shaxslar uchun yagona ijtimoiy to‘lovlar to‘lab borilishi talabini belgilash;
- ijtimoiy kontraktlarning bekor qilish asoslarini qayta ko‘rib chiqish;
- Davlat mablag‘lari hisobidan band bo‘lmagan aholiga berilayotgan subsidiyalarni yetakchi tadbirkorlar tomonidan o‘zlashtirilishini oldini olish maqsadida kooperatsiyalarni tugatish asoslarini takomillashtirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, avvalo, iqtisodiyotda kooperatsiyalar ulushini oshadi, kooperatsiyalarning kooperativ tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritishi hamda a‘zolarining kooperativga a‘zolikdan manfaatdorligi ta‘minlanadi, samarali kooperativ boshqaruv joriy etiladi, kooperativ mulkdan maqsadli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Bu esa tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro raqobat muhitini shakllantiradi, ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilaydi, har bir sohada (qishloq xo‘jaligi, sug‘urta, xizmatlar ko‘rsatish va h.k) samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshiradi, chakana narxlarini pasaytiradi va mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy jihatdan kooperatsiyalarning keng ko‘lamli faoliyati orqali aholi bandligi ta‘minlanadi, kam ta‘minlangan, ishsiz fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi.